

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH-BORROWED WORDS IN THE KOREAN AND KARAKALPAK LANGUAGES*****Feruza Iskanderovna Jumaniazova****Associate Professor, Karakalpak State University
Nukus, Karakalpakstan****Akerke Bakhbergenova****Teacher
Karakalpak State University
Nukus, Karakalpakstan***ABOUT ARTICLE****Key words:** borrowing, semantic analysis, cultural linguistics, English lexemes, Korean language, Karakalpak language, polysemy, semantic field, metaphor.**Received:** 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the semantic features of loan lexical units that have entered the Korean and Karakalpak languages from English. Within the scope of the study, the adaptation of lexemes of English origin to the linguistic systems of both languages, their semantic fields, cases of polysemy, metaphorical and metonymic extensions, as well as cultural connotations are examined. The analyses demonstrate that English borrowings in Korean primarily undergo semantic expansion through the discourse of pop culture, technology, and media, whereas borrowings in Karakalpak display semantic adaptation more closely associated with everyday life, economic processes, and social needs. The article scientifically elucidates how the cultural context of each language influences the meanings of borrowed words.**KOREYS VA QORAQALPOQ TILLARIGA INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN
SO‘ZLARING SEMANTIK TAHLILI*****Feruza Iskanderovna Jumaniyazova****Dotsent
Qoraqalpoq davlat universiteti****Akerke Baxbergenova****Qoraqalpoq davlat universiteti, stajyor-o‘qituvchi*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'zlashma, semantik tahlil, lingvokulturologiya, inglizcha leksemalar, koreys tili, qoraqalpoq tili, polisemiya, semantik maydon, metafora.

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va qoraqalpoq tillariga ingliz tilidan kirib kelgan o'zlashma leksik birliklarning semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida inglizcha kelib chiqishga ega leksemalarning har ikki til tizimiga moslashuvi, ularning semantik maydonlari, polisemiya holatlari, metaforik va metonimik kengayishlari, hamda madaniy konnotatsiyalar tahlil qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, koreys tilidagi inglizcha o'zlashmalar asosan pop-madaniyat, texnologiya va media diskursi orqali semantik kengayishga uchrasa, qoraqalpoq tilidagi o'zlashmalar ko'proq maishiy hayot, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq semantik moslashuvni namoyon etadi. Maqolada har ikki tilning madaniy konteksti o'zlashma so'zlarning ma'nosiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi.

**СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ АНГЛИЙСКОГО
ЯЗЫКА В КОРЕЙСКИЙ И КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫКИ**

Феруза Искандеровна Жуманиязова

Доцент

Каракалпакский государственный университет

Нукус, Каракалпакстан

Акерке Бахбергенова

Стажёр-преподаватель

Каракалпакский государственный университет

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: заимствование, семантический анализ, лингвокультурология, английские лексемы, корейский язык, каракалпакский язык, полисемия, семантическое поле, метафора.

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительный анализ семантических особенностей лексических единиц-заимствований, проникших в корейский и каракалпакский языки из английского. В рамках исследования рассматриваются адаптация англоязычных лексем к системе обоих языков, их семантические поля, случаи полисемии, метафорические и метонимические расширения, а также культурные коннотации. Анализ показывает, что английские заимствования в корейском языке преимущественно подвергаются семантическому расширению через

дискурс поп-культуры, технологий и медиа, тогда как в каракалпакском языке заимствования демонстрируют семантическую адаптацию, связанную главным образом с бытовой сферой, экономическими процессами и социальными потребностями. В статье научно раскрывается влияние культурного контекста каждого языка на формирование значений заимствованных слов.

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonining jadalligi til tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, turli tillar o'rtasidagi leksik almashinuvni kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ingliz tili dunyoning ko'plab tillariga ta'sir etuvchi global kommunikatsiya vositasiga aylangan bo'lib, uning natijasida inglizcha kelib chiqishga ega o'zlashmalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon koreys va qoraqalpoq tillarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Koreya Respublikasida texnologik taraqqiyot, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, pop-madaniyatning global mashhurlikka erishishi inglizcha o'zlashmalarning semantik jihatdan faol kengayishiga sabab bo'lmoqda. service – 서비스 (seobiseu), asosan “bepul qo'shimcha xizmat yoki mahsulot” ma'nosida qo'llanadi; event – 이벤트 (ibenteu) esa koreys tilida “marketing aksiyasi, chegirma tadbiri” mazmunini anglatadi. Shuningdek, concept – 컨셉 (keonseop) so'zi “imij, uslub, umumiy g'oya” ma'nolariga ega bo'lib, pop-madaniyat diskursida faol qo'llanadi. Idol – 아이돌 (aidol) esa koreys tilida inglizcha “sanam” ma'nosidan farqli tarzda faqat K-pop ijodkorlariga nisbatan ishlatiladigan ijtimoiy-madaniy termin sifatida shakllangan, shu kabi birliklar koreys tilida o'z asl ma'nosidan sezilarli darajada farqlanuvchi yangi semantik konnotatsiyalar bilan boyigan.

Qoraqalpoq tilida inglizcha o'zlashmalar soni nisbatan kamroq bo'lsada, ularning qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu jarayon ko'proq iqtisodiy hayot, texnologik terminologiya, internet va media orqali shakllanmoqda. Masalan, market (маркет), manager (менеджер), internet (интернет), blog (блог / блоглаш) kabi o'zlashmalar tilga kirar ekan, ular ko'pincha maishiy ehtiyojlarga mos ravishda semantik torayish yoki funksional kengayish jarayoniga uchraydi.

Tilshunoslikda o'zlashma so'zlarning semantik moslashuvi bir qator nazariy yondashuvlar asosida o'rganiladi. Haugen (1950) o'zlashmalarni ‘loanwords’, ‘loanblends’, ‘loanshifts’ sifatida tasniflaydi. Thomason & Kaufman (1988) til kontaktlari intensivligi semantik jarayonlarning faol yoki sust kechishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, koreys va qoraqalpoq tillariga ingliz tilidan kirgan so'zlar nafaqat fonetik yoki morfologik moslashuvga, balki chuqur semantik transformatsiyaga ham uchraydi.

Mazkur o'zgarishlar har bir tilning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi, axborot oqimlari va kommunikativ ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, inglizcha o'zlashmalarning koreys va qoraqalpoq tillaridagi semantik moslashuv jarayonlari oldin ayrim jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, ularning qiyosiy tahlili, ayniqsa lingvokulturologik kontekstdagi o'ziga xosliklari ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Shu sabab tadqiqotdan ko'zlangan maqsad, inglizcha o'zlashmalarni har ikki tildagi semantik o'zgarishlari asosida ilmiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash, hamda madaniy kontekstning rolini belgilashdir.

O'zlashma so'zlarning semantik tahlilining nazariy asoslari. Til taraqqiyotining tabiiy jarayonlaridan biri - bu boshqa tillardan so'z o'zlashishi bo'lib, u tilning leksik qatlamida, semantik tuzilishida va madaniy mazmunida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. O'zlashma so'zlarning semantik tahlili til kontaktlari, jamiyatning sotsiolingvistik xususiyatlari, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ehtiyojlar hamda kommunikativ omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ingliz tilidan koreys va qoraqalpoq tillariga o'zlashgan so'zlarning semantik tizimini o'rganish umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Tilshunoslikda o'zlashma so'z (zaimstvovannoye slovo / borrowing) deb boshqa til manbalaridan kirib kelgan leksik birliklarga aytiladi. Haugen (1950) o'zlashmalarni uch asosiy turga bo'ladi:

1. Loanwords – shakl va mazmuni bilan birga o'zlashgan so'zlar (computer – 컴퓨터 (keom-pyu-teo) ; market → рынок).
2. Loanblends – qisman o'zlashgan, mahalliy elementlar bilan aralashgan birliklar (to print – 프린트하다 (peu-rin-teu-ha-da), bloglash kabi).
3. Loanshifts – faqat ma'nosi o'zlashgan, shakli mahalliy bo'lgan birliklar (idol айдол, ma'nosi esa kengaygan).

Ushbu tasnif inglizcha o'zlashmalarning koreys va qoraqalpoq tillariga moslashuv jarayonini tushinishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Shunday ekan har bir o'zlashma tilga kirgach, avvalo semantik transformatsiyaga uchraydi. Bu jarayon inglizcha so'zning yangi tilda qanday ma'no kasb etishi, qaysi kontekstlarda qo'llanishi va qanday konnotativ tus olishini belgilaydi. Thomason & Kaufman (1988) ta'kidlaganidek, semantik moslashuv til kontaktlarining intensivligi, ijtimoiy moyilliklar, prestij omili, media ta'siri kabi omillar bilan belgilanadi.

Semantik o'zgarishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

Semantik kengayish (extension)

Soʻz maʼnosining original tilga nisbatan kengroq qoʻllanishi. Masalan, koreys tilidagi 이벤트 (event) – “marketing aksiyasi”, “chegirma tadbiri” maʼnosida ishlatiladi.

Semantik torayish (narrowing)

Ingliz tilidagi keng maʼnoli soʻz yangi tilda tor maʼnoni ifodalaydi. Qoraqalpoq tilida manager - menedjer koʻpincha “doʻkon boshligʻi” maʼnosiga torayadi.

Metaforik koʻchish

Soʻzning maʼnosi konnotativ tarzda kengayadi. Koreyscha 컨셉 (concept) – ilmiy atama emas, balki “uslub, imij” maʼnosida.

Funksional kategoriya almashinuvi

Soʻzning grammatik vazifasi oʻzgaradi (blog - блоглам feʼlga aylanishi).

Semantik moslashuvning bu turlari har bir tilning oʻz kommunikativ tizimiga mos ravishda shakllanadi.

Leksik-semantik tizim va polisemiya. Ingliz tilida polisemik (koʻp maʼnoli) soʻzlar juda koʻp. Oʻzlashish jarayonida bu polisemiya yangi tilga toʻliq koʻchmasdan, faqat ayrim maʼnolar kiradi yoki yangi kontekstga mos tarzda qayta shakllanadi. Masalan:

service ingliz tilida xizmatning har hil turlarini bildirsa, koreys tilida 서비스 - “bepul qoʻshimcha mahsulot yoki xizmat” maʼnosini beradi.

Bu holat polisemiya jarayonining qisman koʻchishi va madaniy qayta semantizatsiya orqali oʻzgarishiga misol boʻladi.

Lingvokulturologik yondashuv. Oʻzlashma soʻzlarni faqat semantik jihatdan emas, balki lingvokulturologik kontekstda tahlil qilish ham zarur. Chunki har bir tilda oʻzlashgan soʻzlar mazkur xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy hayoti bilan uygʻun holda yangi maʼno kasb etadi.

Masalan: Koreys jamiyatida idol (아이돌) faqat “sanam” emas, balki K-pop sanoatining timsoli, yoshlar madaniyatining markaziy elementi boʻlib qoldi.

Qoraqalpoq tilida internet koʻpincha “ijtimoiy tarmoq”, “onlayn hayot” konnotatsiyasi bilan qoʻllanadi. Bu jarayon oʻzlashma soʻzlarning semantik oʻzgarishiga madaniyatning qanday taʼsir qilishini koʻrsatadi.

Koreys va qoraqalpoq tillarida inglizcha oʻzlashmalarning qiyosiy semantik tahlili. Koreys va Qoraqalpoq tillariga ingliz tilidan kirgan oʻzlashmalar umumiy jihatdan global til taʼsirining mahsuli boʻlsa-da, ularning semantik moslashuv jarayoni har ikki tilning lingvokulturologik xususiyatlari, ijtimoiy hayoti, tarixiy taraqqiyoti va kommunikativ ehtiyojlari bilan bogʻliq holda

turlicha shakllanadi. Ushbu bo‘limda inglizcha o‘zlashmalarning semantik o‘zgarishlariga doir asosiy o‘xshashlik va farqlar tizimli tarzda qiyosiy tahlil qilinadi.

O‘zlashish jarayonining umumiy o‘xshashliklari: Koreys va qoraqalpoq tillarida inglizcha o‘zlashmalarning ayrim umumiy qirralari mavjud. Bular, avvalo, global kommunikatsiya vositalari, internet, texnologiya va pop-madaniyatning ta’siri bilan izohlanadi.

□ Birinchidan, har ikki tilda inglizcha o‘zlashmalar ko‘proq texnologiya (computer, internet, smartphone), media (chat, like, content) va biznes (market, manager, project) sohalariga oid.

□ Ikkinchidan, bu o‘zlashmalar fonetik moslashuv orqali yangi talaffuz shakliga ega bo‘ladi. Masalan: service - 서비스 (seobiseu) vs. service - сервис / сервис (rus tili vositachiligi orqali), blog - 블로그 (beulrogeu) vs. blog → блог.

□ Uchinchidan, har ikki tilda inglizcha o‘zlashmalar faol funksional kengayishga ega bo‘lib, yangi fe‘llar, sifatlar, hosila otlar yasanishida qatnashadi. Masalan: koreys tilida: 서비스하다, 이벤트하다, qoraqalpoq tilida: bloglaw, chatlasıw, laykshı.

Bu jarayon inglizcha o‘zlashmalarning har ikki tilning morfologik tizimiga mos ravishda tez integratsiya bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Semantik kengayish bo‘yicha farqlar: Koreys tilida inglizcha o‘zlashmalar keng ma’noli metaforik va konnotativ mazmun bilan boyiydi. K-pop, media, moda, xizmat ko‘rsatish sohalarida inglizcha leksemalar yangi, milliy madaniyatga xos ma’nolar oladi.

Misollar: event - 이벤트 (ibenteu): “nima bo‘lishi” emas, balki reklama aksiyasi, chegirma tadbiri, concept - 컨셉 (keonseop): ilmiy tushuncha emas, balki imij, sahna uslubi, idol - 아이돌 (aidol): “sanam” emas, balki faqat K-pop qo‘shiqchisi.

Qoraqalpoq tilida esa kengayish ko‘proq texnologiya va internet bilan bog‘liq, masalan; internet - “ijtimoiy tarmoq”, “Telegram/Facebook”ning o‘zi sifatida ishlatilishi, blog - “kontent yaratish”, “video olish” ma’nolariga ham ega bo‘lishi.

Demak, koreys tilida kengayish madaniy-estetik, qoraqalpoq tilida esa texnologik-maishiy xarakterga ega.

Semantik torayish bo‘yicha farqlar: Har ikki tilda torayish hodisasi kuzatilsa-da, ularning xarakteri farqlidir. Koreys tilida torayish ko‘proq sanoat yoki ijodiy sohalarga xos terminlarning ixtisoslashuvi bilan bog‘liq: idol (aidol) faqat sahna ijodkorlari uchun ishlatiladi, concept (keonseop) faqat pop-madaniyatdagi uslubga nisbatan qo‘llanadi.

Qoraqalpoq tilida esa torayish maishiy va iqtisodiy kontekst bilan bog‘liq: market - рынок - ko‘pincha kichik do‘kon, manager - менеджер - ko‘pincha oddiy boshqaruvchi yoki sotuv bo‘limi rahbari.

Bu holat har ikki jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari va ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq.

Metaforik qo'llanilishdagi farqlar. Koreys tilidagi inglizcha o'zlashmalar ko'proq emotsional-estetik metafora bilan boyiydi: service (서비스) - "yaxshilik qilish", "e'tibor ko'rsatish", concept (컨셉) - "ruhi", "kayfiyati", "shaxs uslubi".

Bu madaniy hodisalar koreys jamiyatining kollektiv estetik qadriyatlari bilan uyg'un.

Qoraqalpoq tilida esa metafora ko'proq status, zamonaviylik yoki iqtisodiy qadriyatlar bilan bog'liq: dollarliq (qimmat), smartfon (zamonaviylik belgisi), online (faol, tezkor). Bu farq har ikki xalqning turmush tarzi, media iste'moli va iqtisodiy tajribasiga bog'liq.

Morfologik moslashuv bo'yicha o'xshashliklar va farqlar

O'xshashliklar: Har ikki til inglizcha o'zlashmalardan yangi grammatik shakllar hosil qiladi:

Koreyscha: 서비스하다, 이벤트하다, 콘셉츄얼하다

Qoraqalpoqcha: bloglaw, chatlasıw, laykshı

Bu inglizcha so'zlarning har ikki tilda ham aktiv derivatsion potentsialga ega ekanini ko'rsatadi.

Farqlar: Koreys tilida inglizcha so'zlar odatda hada (하다) affiksi orqali fe'llashadi.

Qoraqalpoq tilida esa inglizcha ildizga -law/lew, -lı/li, -shı/shi kabi affikslar qo'shiladi. Bu har ikki tilning agglutinativ tabiatiga xos moslashuv bo'lib, lekin fonetik va morfologik integratsiya darajalari turlicha.

Lingvokulturologik farqlar: Inglizcha o'zlashmalarning madaniy talqini koreys va qoraqalpoq tillarida tubdan farq qiladi.

Koreys tili madaniy konteksti: K-pop madaniyatining global ta'siri, reklama, moda, ko'ngilochar sanoatning rivoji, inglizcha so'zlarning "zamonaviylik" belgisi sifatida qabul qilinishi

Qoraqalpoq tili madaniy konteksti: Texnologiya va internet orqali o'zlashuv, iqtisodiy sohada inglizcha terminlarning kirib kelishi, o'zlashmalarning kundalik hayotga mos, sodda talqini.

Jadval 1

Qiyosiy tahlil xulosasi

Aspekt	Koreys tili	Qoraqalpoq tili
Semantik kengayish	Kuchli, madaniy-estetik	O'rtacha, texnologik-maishiy
Semantik torayish	Ijodiy sohalarda	Maishiy iqtisodiy sohalarda
Metafora	Emotsional, estetik	Status, texnologiya
Funksional moslashuv	Fe'llashish aktiv	Fe'l/sifat/ot yasash aktiv

Madaniy omil	K-pop, media, marketing	Internet, iqtisod, kundalik nutq
--------------	-------------------------	----------------------------------

Bu jadval har ikki tilning inglizcha o'zlashmalarni qabul qilish jarayoni turli yo'nalishda rivojlanganini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar koreys va qoraqalpoq tillariga ingliz tilidan kirgan o'zlashma so'zlarning semantik xususiyatlari va ularning lingvokulturologik talqinlari o'zaro sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Har ikki til global kommunikatsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'lib, inglizcha leksemalarning semantik tizimiga moslashuvi zamonaviy til taraqqiyotining ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, inglizcha o'zlashmalar har bir tilning milliy madaniyati, ijtimoiy tuzilishi va kommunikativ ehtiyojlariga mos ravishda turlicha semantik transformatsiyaga uchraydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, inglizcha o'zlashmalar koreys tilida ko'proq madaniy-estetik mohiyat kasb etsa, qoraqalpoq tilida kommunikativ-pragmatik xususiyat kasb etadi. Koreys tilida inglizcha o'zlashmalar yoshlar submadaniyati, ijodiy sanoat va reklama tiliga integratsiyalangan bo'lsa, qoraqalpoq tilida ular kundalik nutq, texnologiya, biznes va internet muhitiga bog'liq tarzda shakllangan. Morfologik moslashuv jihatidan, har ikki til agglutinatив tizimga ega bo'lgani sababli inglizcha leksemalar yangi grammatik shakllar yasashda faol ishtirok etadi. Biroq, fe'llashish jarayoni koreys tilida hada modeli orqali sodir bo'lsa, qoraqalpoq tilida – law/lew, -li/li, -shi/shi kabi affikslar orqali amalga oshadi.

Tadqiqot natijalari inglizcha o'zlashmalarni qiyosiy o'rganish koreys va qoraqalpoq tillarining lingvosemantik xususiyatlarini chuqur anglashga, madaniy farqlarni ilmiy asosda tahlil qilishga, shuningdek, global ta'sir ostidagi til o'zgarishlarini baholashga imkon berishini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslikning qiyosiy semantika, lingvokulturologiya va sotsiolingvistika yo'nalishlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusi izlanishlarda o'zlashma so'zlarning pragmatik, stilistik va psixolinguistik xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baskakov, N. A. (2005). Каракалпакский язык: Лексические процессы и развитие словарного состава. Karakalpak State University Press.
2. Haugen, E. (1950). The analysis of linguistic borrowing. *Language*, 26(2), 210–231.
3. Johanson, L., & Csató, É. Á. (Eds.). (1998). *The Turkic languages*. Routledge.
4. Kadirova, S. (2022). English loanwords in modern Uzbek and Karakalpak media discourse. *Central Asian Journal of Linguistics*, 4(1), 77–89.

5. Lee, K.-H. (2020). The sociolinguistics of English loanwords in Korean media language. *Journal of Korean Linguistics*, 45(3), 311–335.
6. Sohn, H.-M. (2001). *The Korean language*. Cambridge University Press.
7. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). *Language contact, creolization, and genetic linguistics*. University of California Press.
8. Yoon, K. (2018). Cultural identity and English loanwords in the Korean pop industry. *Journal of Asian Pop Culture*, 12(2), 55–78.